O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 902. 6(575.151)

***Gulmira Ch. KATTAYEVA,***
*PhD, dotsent, Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston*
*E-mail: kattayevag@tersu.uz, ORCID: 0000-0001-8173-2155*

*TerDU dotsenti, PhD O.Xamidov taqrizi asosida*

## ARCHAEOLOGICAL MAP OF THE OXUS CIVILIZATION (THE CASE OF THE HISTORICAL AND CULTURAL REGION OF MARGIANA)

Annotation

It is examined the Bronze Age archaeological map of Margiana on the basis of geographical, palaeohydrographic and chronological data in this article. The influence of the Murghab alluvial fan and ancient irrigation on settlement distribution, the main micro-oases, the chronology of the Kelleli phase and the radiocarbon dates of Adzhi Kui 9 are analysed. The causes of discrepancies in site inventories are identified.

**Keywords:** Oxus Civilization, Margiana, Bronze Age, archaeological mapping, palaeohydrography, micro-oases, settlement distribution.

## АРХЕОЛОГИЧЕСКАЯ КАРТА ЦИВИЛИЗАЦИИ ОКСА (НА ПРИМЕРЕ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОЙ ОБЛАСТИ МАРГИАНА)

Аннотация

В статье исследуется археологическая карта Маргианы эпохи бронзы на основе географических, палеогидрографических и хронологических данных. Анализируются влияние аллювиального конуса Мургаба и древней ирригации на размещение поселений, основные микрооазисы, хронология келлелийского этапа и радиоуглеродные даты Аджи-Куи 9. Выявлены причины расхождений в учёте памятников.

**Ключевые слова:** цивилизация Окса, Маргиана, эпоха бронзы, археологическое картографирование, палеогидрография, микрооазисы, система расселения.

## OKS SIVILIZATSIYASI ARXEOLOGIK XARITASI (MARG‘IYONA TARIXIY-MADANIY VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada Marg‘iyonaning bronza davri arxeologik xaritasi geografik, paleogidrografik va xronologik ma’lumotlar asosida tadqiq etiladi. Murg‘ob allyuvial yoyilmasi va qadimgi sug‘orish tizimlarining manzilgohlar joylashuviga ta’siri, asosiy mikrovohalar, Kelleli bosqichi xronologiyasi va Aji Quy 9 radiouglerod sanalari tahlil qilinadi. Yodgorliklar sonidagi tafovutlarning sabablari aniqlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Oks sivilizatsiyasi, Marg‘iyona, bronza davri, arxeologik xaritalash, paleogidrografiya, mikrovohalar, manzilgohlar tizimi.

**Kirish.** Oks sivilizatsiyasi sug‘orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo va monumental me’morchilikka asoslangan protoshahar tipidagi sivilizatsiya bo‘lib, Shimoliy Afg‘onistondagi Dashli, Janubiy Turkmanistondagi Namozgoh, Janubiy O‘zbekiston va Janubi-g‘arbiy Tojikistondagi Sopolli madaniyatlarini birlashtiradi. Arxeologiyada u «Turon sivilizatsiyasi», «Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik majmuasi» (BMAK) va «Buyuk Xuroson sivilizatsiyasi» (GKC) nomlari bilan ham ataladi [1,3]. «Yadro maydoni»ni Marg‘iyona (markazi Gonur) va Baqtriya (markazi Dashli va Jarqo‘ton) tashkil etadi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qadimiy moddiy-madaniy merosni ilmiy asosda tadqiq etishga alohida e’tibor qaratmoqda [4]. Biroq tadqiqotlarda yodgorliklar soni, xronologiyasi va koordinatalarining farqlanishi Marg‘iyonaning yagona arxeologik xaritasini tuzishni qiyinlashtiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Oks sivilizatsiyasining shakllanishi, xronologiyasi, hududiy tarqalishi va moddiy madaniyati Markaziy Osiyo bronza davri arxeologiyasining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan bo‘lib, ushbu masalalar turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Jumladan, K.Lamberg-Karlovskiy Baqtriyaning bronza davri arxeologiyasini [1] tadqiq etgan bo‘lsa, B.Lyonne va N.A.Dubova Oks sivilizatsiyasining asosiy hududiy o‘choqlari sifatida Marg‘iyona (Gonur) va Baqtriyani (Dashli va Jarqo‘ton) ajratib ko‘rsatib, unga xos moddiy madaniyat unsurlari Zarafshon vodiysi, Sharqiy Eron va Balujiston hududlarida ham uchrashini ta’kidlagan [2].

A.Vahdati va R.Bischone «Buyuk Xuroson sivilizatsiyasi»ning tarqalish geografiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirib, asosiy hududi Sosoniylar va ilk islom davridagi Buyuk Xuroson chegaralariga deyarli mos kelishini qayd etgan [5].

S.Salvatori Oks sivilizatsiyasining o‘rta bronza davridagi makoni Janubiy Turkmaniston tog‘oldi hududlari, Murg‘ob deltasi, Amudaryo bo‘yi va Shimoliy Afg‘onistonni qamrab olganini ko‘rsatgan [6].

Marg‘iyona vohasining bronza davri arxeologik yodgorliklarini o‘rganishda V.I. Sarianidining arxeologik tadqiqotlari [7], «The Archaeological Map of the Murghab Delta» katalogi [8], M. Cattani, B. Kerasetti, S. Salvatori va M. Tosi tomonidan geografik axborot tizimlari (GAT) hamda masofadan zondlash usullari asosida olib borilgan izlanishlar [9; 10; 11], shuningdek, L.M. Rouse va B. Kerasettining arxeologik landshaft va manzilgohlar tarqalishiga oid tadqiqotlari [12;13] muhim ilmiy manbalar hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotlardagi yodgorliklar soni, xronologiyasi va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlar metodologik hamda hududiy qamrov jihatidan farqlanadi. Shu bois ularni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish Marg‘iyona bronza davri arxeologik xaritasini aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda induktiv, tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik va kartografik tahlil usullari asosida arxeologik kataloglar, dala tadqiqotlari, Landsat 7, SRTM materiallari va radiouglerod sanalari o‘rganildi. Yodgorliklar soni hududiy qamrov, xronologik mansublik va kataloglashtirish mezonlari asosida qiyoslandi, geodezik datumi noma’lum koordinatalar taxminiy deb baholandi.

**Tahlil va natijalar.** Marg‘iyona geografiyasi va paleogidrografiyasi. Murg‘ob – Hindukushdan boshlanib, Qoraqum cho‘lida delta hosil qilib tugaydigan endoreik daryo [14]. Tekislikka chiqqach u ko‘plab tarmoqlarga bo‘linadi; Jar (Dzhar) botqoqligi bu hududni g‘arbdagi Aravali deltasi va sharqdagi Marv vohasi tizimlariga ajratadi [9]. Oqiziqlar tekislik bo‘ylab yelpig‘ichsimon yoyilgani uchun M.Tosi va B.Kerasetti «delta» o‘rniga «allyuvial konus» (alluvial fan) atamasini qo‘llashni taklif etgan [15].

Murg‘ob deltasining maydoni turlicha baholanadi: B. Kerasetti uni taxminan 20 000 km² [10], M. Cattani va hammualliflari esa qariyb 35 000 km² deb ko‘rsatadi [9]. 2001-yilgi Landsat 7 tasvirlari asosida hozirgi allyuvial konus maydoni taxminan 10 000 km², SRTM modeli asosida rekonstruksiya qilingan qadimgi konus esa 19 400 km² deb baholangan [15]. O‘rta bronza davrida Marg‘iyonaning qadimgi agrar hududi 25–30 ming km² atrofida bo‘lgan [6].

Suv ta’minoti Murg‘obning tabiiy o‘zanlari va paleoo‘zanlaridan chiqarilgan kichik kanallarga asoslangan [16]. O‘rta va so‘nggi bronza davrida voha sharqidagi asosiy tizim Yo‘lo‘tan kichik deltasi bilan bog‘liq bo‘lgan, Sultonbent kabi yirik inshootlar esa temir davrining III–IV bosqichlaridan keyin barpo etilgan [10]. Taxirboy hududida ikki paleoo‘zandan faqat g‘arbiysi bo‘ylab bronza davri manzilgohlari jamlangan [17]. Deltaning shimolida eol qumlari so‘nggi bronza va ilk temir davrida kuchaygan [16], janubida esa ayrim yodgorliklar 2–4 m allyuvial yotqiziqlar ostida qolgan [9]. Hozirgi barxanlarning aksariyati bronza davri yer yuzasini qoplab yotadi [17], shu bois aniqlangan yodgorliklar qadimgi manzilgohlar sonini to‘liq aks ettirmaydi.

Vohalarning joylashuvi. Marg‘iyonaning bronza davri manzilgohlari Murg‘ob deltasining turli qismlarida, asosan qadimgi daryo o‘zanlari va ular bilan bog‘liq sug‘orish tarmoqlari bo‘ylab shakllangan. S. Salvatori delta hududida Kelleli, Egri Bog‘oz, Tayp, Aji Quy, Gonur, Auchin, Adam Basan, To‘g‘oloq va Taxirboydan iborat to‘qqizta «mikrovodiy»ni ajratadi. Biroq muallif mazkur mikrovodiylarni alohida xronologik bosqichlar sifatida emas, balki manzilgohlarning muayyan gidrografik tarmoqlar atrofida hududiy jamlanishini ifodalovchi makon birliklari sifatida talqin qiladi [18].

Ushbu mikrovodiylarning joylashuvi Murg‘ob deltasining paleogidrografik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Kelleli deltaning shimoli-g‘arbiy qismida, Jar botqoqligining sharqiy chekkasidagi qadimgi o‘zan bo‘yida joylashgan bo‘lib, deltaning dastlabki o‘zlashtirilishi ham mazkur hudud bilan bog‘lanadi [18, 19,]. Gonur bronza davrida deltaning asosiy suv tarmoqlaridan biri bilan bog‘liq yirik markaz sifatida shakllangan [19, 11,]. Auchin tadqiqot hududining shimoli-sharqiy qismida joylashgan [11,]. Undan janubi-g‘arbda joylashgan Oyakli (№1744) so‘nggi bronza davri mobil chorvador jamoalari bilan bog‘liq muhim yodgorlik hisoblanadi [12]. To‘g‘oloq esa Murg‘ob allyuvial konusining shimoli-sharqiy qismidagi muhim bronza davri markazlaridan biri bo‘lgan [20]. Mazkur mikrovodiylar xronologik bosqichlarni emas, balki aholi manzilgohlarining muayyan paleogidrografik tarmoqlar atrofida hududiy jamlanishini aks ettiradi.

Marg‘iyona bronza davri xronologiyasi. Murg‘ob deltasining bronza davri xronologiyasi asosan o‘rta va so‘nggi bronza davri majmualari va sopol materiallari asosida ishlab chiqilgan; ilk bronza davriga oid dalillar kam va ularning talqini bir xil emas. Kelleli vohasining eng qadimgi bosqichi Janubiy Turkmaniston xronologik tizimidagi Namozgoh V davrining yakuniy bosqichiga nisbat beriladi [21], xronologik sxemalarda esa Kelleli bosqichi o‘rta bronza davri doirasida ko‘rsatiladi [9]. V.I. Sarianidi deltadagi eng qadimgi dalillarni mil. avv. III ming yillik boshlariga nisbat bergan [9], Italiya arxeologik ekspeditsiyasi sxemasida esa ilk bronza davri mil. avv. 2800–2400-yillar bilan belgilangan [11]. Biroq bu deltada shu davrga oid mustaqil majmua mavjudligini anglatmaydi.

O‘rta bronza davri S.Salvatori va B.Kerasetti tadqiqotlarida mil. avv. 2400–1950-yillar bilan belgilanadi [11, P. 551]. Kelleli bosqichi manzilgohlarining radiouglerod sanalari asosan mil. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi [21].

Uchinchi sanani S.Salvatori stratigrafik holatga mos kelmaydigan deb baholaydi [22], sopol majmuasi va boshqa moddiy madaniyat belgilari ham Aji Quy 9 ni Kelleli bosqichiga, ya’ni o‘rta bronza davriga kiritish imkonini beradi [22].

Yodgorliklar soni. Marg‘iyona arxeologik yodgorliklarining umumiy sonini aniqlashda turli nashrlarda keltirilgan statistik ma’lumotlar va yodgorliklarga berilgan inventar raqamlarini o‘zaro farqlash zarur. Mazkur tadqiqotlarda qo‘llanilgan usullar va hisoblash mezonlari turlicha bo‘lganligi sababli ularda qayd etilgan yodgorliklar sonini bevosita umumlashtirish maqsadga muvofiq emas.

A. Gubayev, G.A.Koshelenko va M.Tosi tahririda 1998-yilda nashr etilgan “Murg‘ob vohasining arxeologik xaritasi” (“The Archaeological Map of the Murghab Delta”) asarining 201-betida 1980-yildan 1996-yil oktabrigacha ro‘yxatga olingan 958 ta arxeologik yodgorlik qayd etilgan [8]. Biroq A.-P. Francfort mazkur nashrga bag‘ishlangan taqrizida 966 ta yodgorlik kataloglashtirilgani va xaritalashtirilganini ta’kidlaydi [14].

Keyingi arxeologik tadqiqotlarda 1998-yilgi katalog doirasidan tashqari raqamlangan yodgorliklar ham uchraydi. L.M. Rouse va B.Kerasetti tadqiqotida so‘nggi bronza davriga oid Oyakli yodgorligi 1744-raqam bilan belgilangan [12]. Bu holat arxeologik xaritalashtirish jarayonida raqamlash tizimi keyingi tadqiqotlar davomida kengayganini ko‘rsatadi. Binobarin, yodgorlikning inventar raqamini muayyan davr yoki hududda aniqlangan arxeologik yodgorliklarning umumiy soni bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan asosli emas.

Marg‘iyona arxeologik yodgorliklarining umumiy sonini aniqlashda turli yillarda amalga oshirilgan dala tadqiqotlarining hududiy qamrovi va xronologik mezonlarini hisobga olish zarur. B. Kerasetti ma’lumotlariga ko‘ra, Murg‘ob allyuvial yoyilmasining 500 km² maydonida o‘tkazilgan 27 ta transekt davomida bronza davridan islom davrigacha mansub 335 ta arxeologik yodgorlik qayd etilgan [11]. Mazkur ko‘rsatkich faqat bronza davri yodgorliklarini ifodalamaganligi sababli uni ushbu davr yodgorliklarining umumiy soniga bevosita qo‘shish mumkin emas.

L.M.Rouse va B.Kerasetti tadqiqotida 2006-yilgacha ro‘yxatga olingan 1391 ta yodgorlik bilan bir qatorda, 2006–2009-yillarda Murg‘ob allyuvial yoyilmasining shimoli-sharqiy qismida aniqlangan yana 357 ta arxeologik yodgorlik haqida ma’lumot berilgan [13]. Keyingi tadqiqotlarda aniqlangan yodgorliklarning katta qismi so‘nggi va yakuniy bronza davrlariga

mansub bo‘lsa-da, ularning barchasini bronza davriga oid deb hisoblash to‘g‘ri emas. Shunday qilib, mavjud statistik ko‘rsatkichlar turli tadqiqot bosqichlari va xronologik guruhlarni qamrab olganligi sababli Marg‘iyona bronza davri yodgorliklarining yagona umumiy sonini aniqlash uchun ularni qayta tasniflash va takroriy qaydlarni istisno qilish talab etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Marg‘iyona bronza davri yodgorliklarining hududiy joylashuvi Murg‘obning qadimgi o‘zanlari va sug‘orish tizimlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, Kelleli, Gonur, Aji Quy, To‘g‘oloq va boshqa mikrovohalar o‘zaro bog‘langan manzilgohlar tizimini tashkil etgan. Arxeologik va radiouglerod ma’lumotlari vohaning barqaror o‘zlashtirilishi asosan o‘rta bronza davridan boshlanganini ko‘rsatadi. Yodgorliklar sonidagi hududiy va xronologik tafovutlar ularni bevosita umumlashtirishga imkon bermaydi. Shu bois arxeologik xaritani aniqlashtirishda xronologik, geografik va paleogidrografik ma’lumotlarni kompleks tahlil qilish muhimdir.

**ADABIYOTLAR**


1. Lamberg-Karlovsky C.C. The Bronze Age of Bactria // Bactria: An Ancient Oasis Civilization from the Sands of Afghanistan / Eds. G. Ligabue, S. Salvatori. – Venezia: Erizzo, 1989. – P. 13–23.
2. Lyonnet B., Dubova N.A. Questioning the Oxus Civilization or Bactria-Margiana Archaeological Culture (BMAC): An Overview // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 7–66.
3. Biscione R., Vahdati A.A. The BMAC Presence in Eastern Iran: State of Affairs in December 2018 – Towards the Greater Khorasan Civilization? // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 527–550.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
5. Vahdati A.A., Biscione R., Dan R., Trémouille M.-C. Grave 12 at Chalow: The Burial of a Young Lady of the “Greater Khorasan Civilization” // Iran: Journal of the British Institute of Persian Studies. – 2025. – Vol. 63. – No. 2. – P. 177–201.
6. Salvatori S., Tosi M. Introduction // The Bronze Age and Early Iron Age in the Margiana Lowlands: Facts and Methodological Proposals for a Redefinition of the Research Strategies / Eds. S. Salvatori, M. Tosi (with the editorial collaboration of B. Cerasetti). – Oxford: Archaeopress, 2008. – BAR International Series 1806. – P. X–XIV.
7. 7.Sarianidi V.I. Margush: Mystery and Truth of the Great Culture. – Ashgabat: Türkmendöwlethabarlary, 2008. – 341 p.
8. Gubaev A., Koshelenko G., Tosi M. (eds.). The Archaeological Map of the Murghab Delta: Preliminary Reports 1990–95. Text and Figures. – Roma: IsIAO, 1998. – Reports and Memoirs. Series Minor. Vol. III. – XIX + 299 p.
9. Cattani M., Cerasetti B., Salvatori S., Tosi M. The Murghab Delta in Central Asia 1990–2001: The GIS from Research Resource to a Reasoning Tool for the Study of Settlement Change in Long-Term Fluctuations // The Bronze Age and Early Iron Age in the Margiana Lowlands: Facts and Methodological Proposals for a Redefinition of the Research Strategies / Eds. S. Salvatori, M. Tosi. – Oxford: Archaeopress, 2008. – BAR International Series 1806. – P. 39–45.
10. Cerasetti B. A GIS for the Archaeology of the Murghab Delta // The Bronze Age and Early Iron Age in the Margiana Lowlands: Facts and Methodological Proposals for a Redefinition of the Research Strategies / Eds. S. Salvatori, M. Tosi. – Oxford: Archaeopress, 2008. – BAR International Series 1806. – P. 29–38.
11. Cerasetti B. Remote Sensing and Survey of the Murghab Alluvial Fan, Southern Turkmenistan: The Coexistence of Nomadic Herders and Sedentary Farmers in the Late Bronze Age and Early Iron Age // Proceedings of the 7th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East. Vol. 1 / Eds. R. Matthews, J. Curtis et al. – Wiesbaden: Harrassowitz, 2012. – P. 539–558.
12. Rouse L.M., Cerasetti B. Ojakly: A Late Bronze Age Mobile Pastoralist Site in the Murghab Region, Turkmenistan // Journal of Field Archaeology. – 2014. – Vol. 39, No. 1. – P. 32–50.
13. Rouse L.M., Cerasetti B. Micro-dynamics and Macro-patterns: Exploring New Archaeological Data for the Late Holocene Human-Water Relationship in the Murghab Alluvial Fan, Turkmenistan // Quaternary International. – 2017. – Vol. 437, Part B. – P. 20–34. – DOI: 10.1016/j.quaint.2015.12.021.
14. Francfort H.-P. Compte rendu de: The Archaeological Map of the Murghab Delta. Preliminary Reports 1990–95 // Arts Asiatiques. – 1999. – Vol. 54. – P. 162–163.
15. Cerasetti B., Tosi M. Once Upon a Time... A Brief Reflection on the History of “The Archaeological Map of the Murghab Delta (AMMD)” Project in Relation to the Fundamental Role of V.I. Sarianidi // On the Track of Uncovering a Civilization: A Volume in Honor of the 80th Anniversary of Victor Sarianidi. Transactions of the Margiana Archaeological Expedition / Eds. P.M. Kozhin, M.F. Kosarev, N.A. Dubova. – St. Petersburg: Orientalia, 2010. – P. 86–103.
16. Cremaschi M. Palaeohydrography and Middle Holocene Desertification in the Northern Fringe of the Murghab Delta // The Archaeological Map of the Murghab Delta: Preliminary Reports 1990–95 / Eds. A. Gubaev, G. Koshelenko, M. Tosi. – Roma: IsIAO, 1998. – P. 15–25.
17. Cattani M. The Final Phase of the Bronze Age and the “Andronovo Question” in Margiana // The Bronze Age and Early Iron Age in the Margiana Lowlands: Facts and Methodological Proposals for a Redefinition of the Research Strategies / Eds. S. Salvatori, M. Tosi. – Oxford: Archaeopress, 2008. – BAR International Series 1806. – P. 133–151.
18. Salvatori S. Margiana Archaeological Map: The Bronze Age Settlement Pattern // The Bronze Age and Early Iron Age in the Margiana Lowlands / Eds. S. Salvatori, M. Tosi. BAR International Series 1806. – Oxford: Archaeopress, 2008. – P. 57–66.
19. Cerasetti B. A 5000-Years History of Settlement and Irrigation in the Murghab Delta (Turkmenistan): An Attempt of Reconstruction of Ancient Deltaic System // Archaeological Informatics: Pushing the Envelope. CAA 2001 / Eds. G. Burenhult, J. Arvidsson. BAR International Series 1016. – Oxford: Archaeopress, 2002. – P. 21–28.
20. Cerasetti B., Arciero R., Carra M., Curci A., De Grossi Mazzorin J., Forni L., Luneau E., Rouse L.M., Spengler R.N. III. Bronze and Iron Age Urbanisation in Turkmenistan: Preliminary Results from the Excavation of Togolok 1 on the Murghab Alluvial Fan // Urban Cultures of Central Asia from the Bronze Age to the Karakhanids / Eds. C. Baumer, M. Novák. – Wiesbaden: Harrassowitz, 2019. – P. 63–72.
21. Salvatori S. The Margiana Settlement Pattern from the Middle Bronze Age to the Parthian-Sasanian Period: A Contribution to the Study of Complexity // The Bronze Age and Early Iron Age in the Margiana Lowlands: Facts and Methodological Proposals for a Redefinition of the Research Strategies / Eds. S. Salvatori, M. Tosi, B. Cerasetti. – Oxford: Archaeopress, 2008. – BAR International Series 1806. – P. 57–74.
22. Salvatori S. The Project for the Archaeological Map of the Murghab Delta (Turkmenistan): Stratigraphic Trial Trenches at Adzhi Kui 1 and 9 // Ancient Civilizations from Scythia to Siberia. – 2002. – Vol. 8, Nos. 1–2. – P. 107–178.